
Salomatxon KOMILOVA: Xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan juda mamnunman

Madaniyat" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi fuqaro Salomatxon Komilova 2011 yildan buyon bemorligi bo'lganligi uchun "Ayollar daftari"ga olingan.

-2011 yildan buyon bemorligim bo'lib, 2016 yildan bir joyda bo'lib qoldim. Mas'ul rahbarlar va mahalla xodimlari doimo xabar olib turishadi, - deydi biz bilan suhbatda Salomatxon Komilova. - Yaqinda o'ziyurar nogironlik aravachasi berishdi. Farzandimning shartnoma pullari to'lab berildi. Moddiy yordam va oziq-ovqat mahsulotlari ham beriladi. E'tibordan juda mamnunman.

Farg'ona shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova mazkur xonadonda bo'lib, oilaning ijtimoiy va iqtisodiy holatlarini o'rgandi. Xotin-qizlar doimo davlatimiz g'amxo'rligida ekanligini ta'kidlab, tibbiy ko'riklarni o'z vaqtida o'tkazish, oiladan muntazam xabar olib turish bo'yicha mas'ullarga topshiriqlar berdi.

2023-03-27 17:02:43